



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05- Noyabr 2021
Ma'qullandi: 10- Noyabr 2021
Chop etildi: 15- Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

tarjima, urf-odatlar, kitobxon, beautiful, sifat, turkum, tarjimon, ingliz tili, tasviriy ifoda.

BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA TASVIRIY IFODA VA SIFATLAR QO'LLANILISHI

(Garold Robinsning "Meni tashlab ketma" asari asosida)

Ozoda Imomova¹, Oybek Boboqulov Abdiqodirovich²

^{1,2}DTPI filologiya va tillarni o'qitish:
o'zbek tili yo'nalishi talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5716589>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Garold Robinsning "Meni tashlab ketma" asarida tasviriy-ifodaviy jarayon va sifatlardan foydalanish masalalari ko'rilgan. Ularning qo'llanilishi hamda asardagi o'rni keltirib o'tilgan

Jannatmakon va betakror ona-yurtimiz O'zbekiston yildan-yilga chiroy ochib, tanib bo'lmas darajada o'zgarib, yangilanib bormoqda. Pirovard maqsadi buyuk kelajakni yaratish bo'lgan mamlakatimizda ushbu ezgu niyatni amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlar yetarli. Bularning barchasi yurtimiz istiqloli, xalqimiz asrlar davomida orzu qilgan mustaqillik sabab yuz berayotganligini haqli ravishda e'tirof etish zarur. Milliy istiqlol hayotning barcha jabhalari, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratdiki, bu narsa mustaqillikning dastlabki yillaridan davlatimiz, shaxsan Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning sa'y-harakatlari va tashabbuslari bilan hayotga izchil, yurtboshimizning o'z ta'birlari bilan aytganda, bosqichma-bosqich tatbiq etib

kelindi. Islohotlar, ta'kidlaganimizdek, barcha sohalarini qamrab olgan. Xususan, davlatimiz tilga e'tibori boiz, tarjimashunoslikdagi islohotlar ham quvonarli holdir. O'zbek tiliga tarjima qilinayotgan chet el asarlari o'zbek xalqining urf-odatlari, milliy ana'nalari va so'z boyligining ortishi hamda o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun ham badiiy asarlar hayotimizda o'z o'rniga va ahamiyatiga ega hisoblanadi. Ko'pincha biror narsa belgi xususiyatini tinglovchi yoki o'quvchiga tushunarli, aniq qilib tasvirlab berish uchun uzundan-uzoq va birdan ortiq gaplarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Shunday vaqtlarda so'zlovchi yoki yozuvchi ayni shu fikrni bayon qilib berishda uzundan-uzoq gaplarni qatorlashtirishdan qochib, boshqa vositalardan foydalangan holda lo'nda va



aniq qilib tushuntirishga erisha oladi. Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda-tasviriy vositalar deyiladi.¹ Tarjima asarlarni tarjima qilish jarayonida bitta soʻzni maʼnosini anglatish maqsadida oʻzbek tilining bir nechta soʻzlar xazinasidan eng maqbulini olgan holda tarjima qilinadi. Bitta ingliz tilidagi asarni oʻzbek tiliga tarjima qilish uchun avvalo, tarjimon tarjima qilayotgan ingliz asarining muhitini, voqea va syujetini anglashi va qaysi davlat asarini tarjima qilayotga boʻlsa, oʻsha mamlakatning urf-odatlarini, anaʼnalarini, turmush tarzini yaxshi bilishi lozim. Chunki asar tarjima qilinayotganda xuddi qayta yozilgandek boʻladi. Tasviriy ifodalar – predmet, voqea va hodisalarning oʻz nomi bilan emas, balki ularning xarakterli belgi xususiyatlarini tasviriy usul orqali ifodalash jarayonidir.

Tasviriy ifodalar uslubiy vosita sifatida nutqqa koʻtarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lugʻat tarkibini boyitadi. Tasviriy ifodalar soʻzni chiroyli va koʻrkam ifodalashdir. Shuningdek, lugʻat boyligining ortishidagi asosiy vosita ham hisoblanadi.

Hozirgi kunda ingliz tilining dunyo tillaridan biri ekanligini hisobga olsak, ingliz tiliga boʻlgan extiyoj natijasida ingliz yozuvchilarining asarlariga boʻlgan qiziqish tufayli ularning koʻplab asarlari oʻzbek tiliga tarjima qilinmoqda. Shunday asarlardan biri amerikalik yozuvchi Garold Robinsning *“Meni tashlab ketma”* asari Lola Shoimova tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilindi va

asarni oʻzbek kitobxonlariga yetkazib bera oldi. Asarni tarjima qilish jarayonida har bir soʻzni oʻz oʻrnida qoʻllash va bir-biriga mos keladigan soʻzlarni qoʻyib tarjima qilish zarur boʻladi. Xususan, tarjima qilingan bu asardagi sifat soʻz turkumining oʻzbek va ingliz tilidagi ifodalanish tarziga bir nazar tashlaymiz. Misol uchun, oʻzbek tilidagi *chiroyli, goʻzal* soʻzlari ingliz tilida *beautiful* soʻzi orqali ifodalanadi. Bunda chiroyli qiz ingliz tilida *“beautiful girl”* tarzida qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida qiz va yigitlarga nisbatan, ayniqsa yigitlarga ogʻzaki nutqda *chiroyli* soʻzini qoʻllasak boʻladi. Masalan *“Chiroyli bola ekan”* tarzidek. Lekin ingliz tilida esa bunday deya olmaymiz va unda biz *“beautiful boy”* deb katta xatoni qilgan boʻlamiz. *“Beautiful”* soʻzi oʻgʻil bolalarga nisbatan ishlatilmaydi. Bu soʻz oʻrnida *“kelishgan”* jumlasini qoʻllasak oʻrinlidir va u quyidagi tarzda boʻladi: *handsome boy – kelishgan bola*. Shunda bu jumla toʻgʻri qoʻllaniladi.

Garold Robinsning bu asarida sifat soʻz turkumining maʼno-nozikliklarini juda koʻp uchratishimiz mumkin. Yana shunday soʻzlardan *oltinrang* yaʼni *golden* soʻzi ham ahamiyatlidir. Chunki, *oltin* bu *tilla* yaʼni *gold*, ot soʻz turkumidan oltinga qiyos berilgan rang sifatida sifatga aylangan. Shunga oʻxshash soʻzlardan yana biri yoqut koʻzli soʻzidir. Bu birikmaning ingliz tilidagi varianti *ruby eyed* boʻladi. Bu soʻz birikmasida ham ot soʻz turkumiga oid soʻz bilan sifat yasalgan. Agar shu jumlagi uzuk soʻzini qoʻshib *“yoqut koʻzli uzuk”* – *“ruby eyed ring”* koʻrinishida qoʻllashimiz mumkin. Shu kabi soʻzlar ham sifat soʻz

¹ Axmedova M.X. , Gayubova K.A. Oʻzbek tili.Oʻquv qoʻllanma.T.- «Aloqachi». 2020-yil.41-b.



turkumining yorqin namunasidir. Barcha ranglar sifat so'z turkumiga oiddir.

Masalan, *moviy – blue, to'q – dark, jigarrang – brown, oq – white* kabi va boshqa ranglardir. Ular doim otlar bilan qo'llanilgan:

moviy osmon – blue sky, moviy ko'zlar – blue eyes, jigarrang soch – brown hair va hokazolar.

To'q-dark so'zi o'zbek tilida to'q ranglarga nisbatan; *To'q jigarrang - dark brown; To'q yashil – dark green; To'q qizil – dark red* kabi misollarni uchramiz

Ingliz tilida *dark qorong'u* ma'nosida ham qo'llanadi. To'q ranglarga nisbatan ham ishlatiladi. Ushbu asardagi sifatlar tabiiy ravishda tarjima qilingan bo'lib ularning barini ko'rsata olmaymiz. Ammo har bir sifatlarning ma'no nozikliklari o'zgachadir. Ingliz asarlarini o'zbek tiliga o'girish jarayonida, tarjimonlar juda e'tiborli bo'lishlari zarur. Gaplarda bitta so'z, ya'ni bitta sifatni noto'g'ri tarjima qilish orqali butun bir asar ma'nosi o'zgarib ketadi. Har bir tarjimon, tarjima asarlariga ma'suliyat bilan yondashishlari va har bir so'zning ma'no nozikliklariga e'tiborli bo'lishlari shart. Zeroki, bu tarjima asarlar, shunchaki asar emas, balki, butun bir millatning shuuri demakdir.

Tarjima qilinayotgan asarlar o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda asarning

sodda, ravon va tushunilishi oson bo'lgan variantlarini tanlab olish zarur. Tarjimonlar chet el asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni uchun bir struktura yaratishlari zarur. Chunki bu chet el asarlarini o'zbek xalqi yengil hazm qilishlari ya'ni tushunishlari uchun lozim. Ingliz tilining o'z tuzulishi, strukturasi mavjud. O'zbek tilining esa aynan qolipga solingan dasturi, modeli yo'q. Agar o'zbek tilining modelini ishlab chiqsak, chet el asarlarini tarjima qilish jarayonida, so'zlarning maqbulini tanlashda bo'layotgan qiyinchiliklarga yakun yasalgan bo'lardi. O'zbek tilining ma'no nozikliklari juda keng. U so'zlarni tartibga solish vaqti keldi. Badiiy asarlarni mohirlik bilan tarjima qilinganda yozuvchining maqsadini anglash, tushunish mumkin bo'ladi.

Xullas, tarjima asarlar uchun bir dastur ishlab chiqish zarur. Chunki tarjimon o'z dunyoqarashi va saviyasidan kelib chiqib asarni bizga taqdim etadi. Ayni bir dastur bo'lsa, aniq, sodda va real asar tarjima qilinardi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilni bilish xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirsa, ikkinchidan, ularning tarixini, madaniyatini, adabiyotini, urf-odatini bilish demakdir. Uchinchidan, xalqlar o'rtasidagi azaliy do'stlikni yanada mustahkamlaydi. Bu o'rinda albatta badiiy asarlar tarjimasining ahamiyati juda katta ekanligini anglab yetamiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova M.X., Gayubova K.A. O'zbek tili.O'quv qo'llanma.T.: Aloqachi. 2020-yil.41-b.
2. Garold Robins.Meni tashlab ketma.O'zbekiston NMIU. 2016-yil. 6,7,15,23,24,28,30,50,63-betlar;
3. Gabriel Garsia Marques.Yolg'izlikning yuz yili.Toshkent.2019-yil;
4. Google ma'lumotlari;
5. Vocabulary dictionary.